
Akademik Shavkat Vohidov 90 yilligiga bag’ishlangan tadbir o’tkazildi

O’zR FA Yadro fizikasi institutida yadro fizikasi va kosmik muhandislik sohasidagi yirik olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, FA akademigi Vohidov Shavkat Axadovich (1932-2008-yy.) 90 yilligiga bag’ishlangan tadbir o’tkazildi. Unda akademiklar, soha yetakchi mutaxassislari, akademikning shogirdlari va oila a’zolari ishtirok etdi.







Tadbirda so’zga chiqqanlar akademik Shavkat Vohidovning hayoti, ilmiy va jamoatchilik faoliyati, uning mamlakatimizda kosmonavtika sohasiga qo’shgan hissasi, aerokosmik maktabi va olim bilan bog’liq xotiralar haqida gapirib berdilar.

Tadbirda akademikning faoliyatini aks ettirgan fotoko’rgazma ham tashkil etildi. Tadbir yakuniga olim xotirasiga bag’ishlangan film namoyish etildi.







Ma’lumot o’rnida, Sh.A.Vohidov "Koinot" ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi Bosh direktori, O‘zbekiston Respublikasi Kosmonavtika federatsiyasi prezidenti lavozimlarida faoliyat yuritgan. Olim iqtidorli maktab o‘quvchilari Xalqaro aerokosmik maktabi tashkilotchisi va rahbari bo’lgan.

Olimning ilmiy ishlari qattiq jismlar fizikasi, kosmonavtika, spektroskopiya, kristallografiya, radiotexnika va aloqa, asbobsozlikka bag’ishlangan.

Olimning bevosita rahbarligida orbitadagi sun’iy yo‘ldoshlarga meteorlar, fazodagi chiqindilar yoki maxsus jismlar bilan ta’sir ko‘rsatilganda shu hodisa qachon va qayerda sodir bo‘lganligidan xabar beradigan ixcham yo‘ldosh, shuningdek tabiiy ofatlar yuz berishidan xabar beradigan va oldini oladigan asboblar, qishloq xo‘jaligi uskunalari yaratildi.